cha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami: 07/18/3775/1313-son. 06.06.2018.

(2). Тоджибаева К.С. Формирование мотивационной сферы нравственных качеств учащихся. Проблемы педагогики. 2017, №.4 (27), с. 14–16.

(3). Brynjolfsson, E., McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.

(4). Arntz, M., Gregory, T., Zierahn, U. (2016). The Risk of Automation for Jobs in OECD Countries: A Comparative Analysis.

(5). Bessen, J.E. (2019). AI and Jobs: The Role of Demand.

(6). OECD. (2019). Future of Work: Employment Outlook.

(7). McKinsey Global Institute. (2017). A Future That Works: Automation, Employment, and Productivity.

(8). PwC. (2018). The Economic Impact of Artificial Intelligence on the UK Economy.

(9). “Raqamli ta’limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo’llari’ mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 25-oktabr 2023-yil.

Abdupattaev Hasanboy Abdurahmonovich (Qo‘qon davlat Pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi, p.f.f., dok., PhD; bdupattaevhasanboy@gmayil.com)

Sharipova Oqibat (Qo‘qon davlat Pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi)

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA “TARBIYA” FANINING JORIY ETILISHI HAMDA TARBIYA VA MILLIY TARBIYA TUSHUNCHALARINING MAZMUNI

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020–2021-o‘quv yilidan boshlab xalq ta’limi tizimiga “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich joriy qilish taklifi, shuningdek, “tarbiya” va “milliy tarbiya” tushunchalarining ilmiy tadqiq etilishi masalalari ko‘rib chiqiladi. Ushbu tushunchalar ilmiy-pedagogik, ijtimoiy-mafkuraviy va tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: tarbiya, milliy tarbiya, uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi, “Tarbiya” fani, akademik ta’lim, ijtimoiy aloqa, o‘yin, o‘z-o‘zini anglash, obyektiv va subyektiv ta’sir.*

Абдупаттаев Хасанбой Абдурахмонович (старший преподаватель Кокандского государственного педагогического университета, к.п.н.; abdupattaievhasanboy@gmayil.com)

Шарипова Окибат (старший преподаватель Кокандского государственного педагогического университета)

ВВЕДЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ И СОДЕРЖАНИЕ КОНЦЕПЦИЙ ОБРАЗОВАНИЯ И НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье говорится, что предложение Президента Республики Узбекистан о постепенном введении предмета «Образование» в систему народного образования с 2020–2021 учебного года поставило вопрос о проведении научных исследований по понятиям «образование» и «народное образование». Анализируются эти концепции с научно-педагогической, социально-идеологической и исторической точек зрения.*

Ключевые слова: *образование, национальное образование, концепция непрерывного духовного образования, предмет «воспитание», академическое образование, социальная коммуникация, игра, самосознание, объективное и субъективное влияние.*

Abdupattaev Hasanboy Abdurakhmonovich (Senior teacher of Kokan State Pedagogical University p.f.f., doc., PhD; abdupattaevkhasanboy@gmail.com)

Sharipova Oqibat (Senior teacher of Kokan State Pedagogical University)

INTRODUCTION OF EDUCATION IN SECONDARY SCHOOL AND CONTENT OF EDUCATION AND NATIONAL EDUCATION CONCEPTS

Annotation. *The article says that the proposal of the President of the Republic of Uzbekistan on the gradual introduction of the subject “Education” into the public education system from the 2020/2021 academic year raised the question of conducting scientific research on the concepts of “education” and “education”. “Public education”. These concepts are analyzed from the scientific-pedagogical, socio-ideological and historical points of view.*

Key words: *education, national education, the concept of continuous spiritual education, the subject of “upbringing”, academic education, social communication, play, self-awareness, objective and subjective influence.*

Kirish (Introduction). Dunyo ta’lim tizimida o‘quvchilarda erkin fikrlash, axborot bilan ishlash va bilish motivatsiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchilarda tadbirkorlik, yetakchilik, raqobatdoshlik kabi hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, moddiy va ma’naviy merosga nisbatan qad-

riyatli munosabatni tarbiyalash dolzarb vazifaga aylangan. Ayniqsa, global fuqarolikni shakllantirish, zo‘ravonlikka qarshi kurashish va milliy o‘zlikni anglashda pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish zarurati kuchaygan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida xalq ta’limini umummilliy harakatga aylantirish, yosh avlodda ma’naviy immunitetni mustahkamlash uchun buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, “Tarbiya” fanini o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Shu boisdan o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va hayotiy muammolarni hal eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktab ta’limi nafaqat bilim berishga, balki shaxsiy taraqqiyot va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Shuningdek, raqamli savodxonlik, madaniy kompetensiyalar va ekologik ong kabi transversal (kesishuvchi) kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning ijtimoiy-adabiy va texnologik muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ta’minlanadi. Shu jihatdan ta’lim mazmunini integratsiyalashgan, kompetensiyaga yo‘naltirilgan va shaxsga qaratilgan yondashuv asosida yangilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida esa milliy qadriyatlar asosida barkamol avlodni tarbiyalash, ularning tarixiy xotira va madaniy identitetini mustahkamlash orqali global o‘zgarishlarga moslashuvchan, ammo milliy ildizlariga sodiq shaxsni shakllantirish yo‘lida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy metodik yondashuvlar asosida o‘qituvchilarning malakasini oshirish ham ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ma’lumki, “har qanday narsa va hodisani aniqlashdan avval, uning mohiyatini anglatuvchi tushunchalar yoki u haqda ma’lumot beruvchi ta’riflarni chuqur tahlil va tadqiq etish qo‘yilayotgan muammoni ilmiy-amaliy yechimini topishda eng qulay vosita hisoblanadi” [1;10-b.]. Shunga ko‘ra, dastlab, e’tiborni tadqiqotning asosini tashkil qiluvchi “tarbiya” tushunchasini tahliliga qaratamiz. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida keltirilishicha, tarbiya deganda shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy-pedagogik jarayon tushuniladi. Tarbiya insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘rsatiladigan chora-tadbirlar yig‘indisi bo‘lib, u insonning insoniyligini ta’minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi [2;270-b.]. Mazkur masala bo‘yicha Sharq mutafakkirlari orasida Abu Ali ibn Sinoning qarashlari diqqatga sazovor bo‘lib, “u tarbiya jarayoni aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat (hunar o‘rgatish) tarbiyalarining bir butunligini tashkil etadi, deb ko‘rsatgan edi. U maktabda o‘qish, tarbiya ishlarini jamoa tarzida tashkil etish g‘oyasini olg‘a surdi. O‘qitish jarayonining didaktik asoslarini yaratdi. Uning fikricha, bolani birdan kitobga band qilib qo‘ymaslik, o‘qish sekin-asta, yengildan og‘irga qarab borish orqali olib borilishi kerak” [3;37-b.]. Hozirgi kunda mamlakatimiz olimlari tomonidan tarbiya tushunchasi bo‘yicha ko‘plab ta’rif va talqinlar berilgan bo‘lib, Jumladan, bir guruh olimlar, ya’ni, R.H.Djurayev, S.T.Turg‘unov, G.M.Nazirovalar fikriga ko‘ra, “tarbiya – insonlar rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydigan jarayon bo‘lib, bir avlod ijtimoiy tajribasining keyingi avlodlar tomonidan o‘zlashtirilishi va ularning ijtimoiy hayotga qo‘shilishlarini ta’minlab beruvchi zaruriy faoliyatdir” [4;76-b.]. N.G‘aybullayev, R.Yodgorov va R.Mamatqulovalar fikricha, “tarbiya keng ma’noda yoshlarni, insonlarni obyektiv va subyektiv ta’sirlar asosida axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayonidir” [5;43-b.].

Tadqiqotning maqsadi va metodologiyasi. Tadqiqotda “Tarbiya” fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida didaktik modelni ishlab chiqish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish taklif etiladi. Shuningdek, tarbiya tushunchasi chuqur tahlil qilinib, uning ilmiy-amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Milliy rnsiklopediyasiga ko‘ra, tarbiya – bu shaxsda jismoniy, ruhiy, axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Tarbiya insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash uchun ko‘rsatiladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Shu bilan birga, Abu Ali ibn Sinoning qarashlari ham e’tiborga molik, u tarbiya jarayonini aqliy, jismoniy, axloqiy va mehnat tarbiyasining bir butunligi sifatida ta’riflagan. Bugungi kunda tarbiya tushunchasiga bir nechta ilmiy yondashuvlar mavjud, jumladan, R.H.Djurayev, S.T.Turg‘unov va G.M.Nazirovlarning fikricha, tarbiya – bu insonlar rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydigan jarayon.

Tahlil va natijalar. Maqolada tarbiya masalalariga nazariy yondashuvlarning umumiy va zamonaviy pedagogik asoslarga qaratilganligi ko‘rsatilgan. Bu o‘rganish natijasida umumta’lim maktablarida “tar-

biya" fanini o'qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari yuzasidan chuqur ilmiy yondashuvlar, yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojni oshirishi kerakligi ta'kidlangan.

Zamonaviy pedagogikada tarbiya jarayoni faqat axloqiy qoidalarni o'rgatish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini ta'minlovchi murakkab tizim sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tarbiya masalalariga nazariy yondashuvlar konstruktivizm, humanistik pedagogika va kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy pedagogik paradigmalarga asoslanayotgani, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvlar orqali "Tarbiya" fani o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitish, ularda ongli va mustaqil qaror qabul qilish, shaxsiy mas'uliyatni his qilish kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. "Tarbiya" fanining o'quv jarayoniga chuqur integratsiyalashuvi uning nazariy va amaliy asoslarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishni talab qiladi. Xususan, interaktiv metodlar, loyihaviy faoliyat, amaliy mashg'ulotlar va refleksiv yondashuvlar orqali o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, ijtimoiy muhitda to'g'ri yo'l tutish, madaniy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Xulosa va takliflar. Bugungi axborot almashinuvi davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 23-avgustda taklif qilingan "Tarbiya" fani tizimi orqali maktabda milliy qadriyatlar, axloqiy normlar va fuqarolik masalalariga e'tibor qaratish zarurati oshmoqda. "Tarbiya" fanining joriy etilishi yosh avlodni mustahkam axloqiy asosda tarbiyalash va jamiyatda faollikni oshirishga qaratilgan faoliyatni o'z ichiga oladi. Shu maqsadda "Tarbiya" fanining o'qitilishiga aloqador pedagogik va ijtimoiy-mafkuraviy mexanizmlar ishlab chiqilib, bu fanni o'qitishning metodologik jihatlari va nazariy asoslari yanada rivojlantirilishi kerak. "Tarbiya" va "milliy tarbiya" tushunchalarini yanada chuqurroq tahlil qilish va ular asosida yangi ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Norliyev R.I. Milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalishning o'zaro aloqadorligi va ta'sir xususiyatlari. Falsa-fa fan. nom. diss. avtorefarati, T., 2011.

(2). O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashr., 8-jild, 2004.

(3). Hasanboyeva O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T., "O'qituvchi", 1993.

(4). Djurayev R.H., Turg'unov S.T., Nazirova G.M. Pedagogika. T., "Riso EZ 200 E", 2013.

(5). G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika (oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma). T., M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, 2005.

Atadjanova Mehribon Ilxamovna (Urganch davlat Pedagogika institute "Tarix va geografiya" kafedrasi o'qituvchisi; E-mail:m.atadjanova 89@mail.ru)

GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR EKOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada geografiya darslarida ta'limning muhim tarbiyaviy komponentlaridan biri bo'lgan ekologik tarbiyani va o'quvchilarda ekologik tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Bundan tashqari, ekologik tafakkur komponentlari, geografiya ta'limida o'quvchilarga bevosita tabiat va jamiyat munosabatlarini tushuntirish orqali o'quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirish masalalari qarab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik tarbiya, ekologik tafakkur, tabiat, ekologik tafakkur komponentlari, milliy qadriyat, tabiat muvozanati.*

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСГО МЫШЛЕНИЯ УЧЕНИКОВ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Аннотация. *В данной статье освещены научно-практическое значение развития экологического мышления учеников на уроках географии, как важный воспитательный компонент образования. Кроме этого, рассмотрены вопросы компонентов экологического мышления, развития экологического мышления учеников непосредственно с объяснениям отношений между природой и обществом.*

Ключевые слова: *экологическое воспитание, экологическое мышление, природа, компоненты экологического мышления, национальная ценность, природное равновесие.*

SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING SCHOOL STUDENTS' ECOLOGICAL THINKING IN GEOGRAPHY LESSONS

Annotation. *This article highlights the scientific and practical significance of the development of students' ecological thinking in geography lessons, as an important educational component. In addition,*